ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/1 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2026-yil, 2-son (156/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., professor (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., professor (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun - **5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Bakalavriat ta'lim tizimida fizika fanidan mustaqil ta'limni raqamli simulyatsiyalar asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari **Amonov B., Umrzoqov F.**	Scientific and methodical foundations of organizing independent learning in physics within the undergraduate education system based on digital simulations **Amonov B., Umrzokov F.**	**5-11**
2	Роль притч и легенд в контексте художественного произведения. структурообразующаяя функция жанров устного народного творчества (на материале современной узбекской литературы) **Ишниязова Ш.А.**	The role of parables and legends in the context of a literary work. the structure-forming function of genres of oral folk creativity (based on the material of modern Uzbek literature) **Ishniyazova Sh.A.**	**12-17**
3	Innovatsion yondashuvlarni joriy etish samaradorligini baholash **Xaydarov X.S.**	Evaluation of the effectiveness of the introduction of innovative approaches **Khaydarov X.S.**	**18-23**
4	Bilingvizmning kognitiv rivojlnishdagi o'rni va ahamiyati **Xushmurodova Sh. Sh.**	The role and significance of bilingualism in cognitive development **Khushmurodova Sh. Sh.**	**24-29**
5	Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы **Исакова Д.Т., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М.**	Integration of media education with a secondary school chemistry course **Isakova D.T., Aronbaev S.D., Aronbaev D.M.**	**30-35**
6	Raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: global tendensiyalar va O'zbekiston kontekstida nazariy tahlil **Ahrorov S.**	Social media addiction amidst digital transformation: global trends and a theoretical analysis in the context of Uzbekistan **Ahrorov S.**	**36-46**
7	Talabalar bilan "Galogenlar"mavzusini o'rganishda interfaol uslublardan foydalanish **Aminov Z., Aripova M., Murodov X.**	Using interactive methods in teaching the topic "halogens" to students **Aminov Z., Aripova M., Murodov X.**	**47-50**
8	Ардашир I и основание Сасанидской державы **Зияев О.К.**	Ardashir I and the Foundation of the Sasanian Empire **Ziyaev O.K.**	**51-55**
9	Geometriya fanini o'qitishda vizuallashtirishning pedagogik-psixologik asoslari va fazoviy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari (Akademik litsey kontekstida) **Xoliqov L.**	Pedagogical and psychological foundations of visualization in teaching geometry and mechanisms for developing spatial thinking (In the context of academic lyceums) **Kholikov L.**	**56-60**
10	Ingliz va o'zbek madaniyatlarida tabiatning lingvistik tasviri: metaforalar va madaniy qadriyatlar **Shamsiddinova N.F., Ruziyeva S.A.**	Linguistic representation of nature in English and Uzbek cultures: Metaphors and cultural values **Shamsiddinova N.F., Ruzieva S.A.**	**61-68**
11	O'quvchi yoshlarning istiqbol hayot rejalarini belgilashda ijtimoiy raqobatning o'rni **Abduvaliyev F.**	The role of social competition in shaping the future life plans of students **Abduvaliev F.**	**69-74**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
12	Umumiy o‘rta ta’lim tizimida hr texnologiyalar va pedagoglarni boshqarishning singapur tajribasi **Turikova L.M.**	HR technologies and singapore’s experience in managing educators within the general secondary education system **Turikova L.M.**	**75-79**
13	Dafn marosimlarining an’anaviy va zamonaviy talqini **Kamalova D.**	Traditional and modern interpretations of funeral rites **Kamalova D.**	**80-84**
14	O‘zbek va ingliz tillarida predloglar va bog‘lovchilarning sintaktik vazifalarining qiyosiy tadqiqi **Rasulova I.I.**	A comparative analysis of the syntactic functions of prepositions and conjunctions in uzbek and english languages **Rasulova I.I.**	**85-89**
15	Mustamlaka davrda samarqand “Yangi shahar” qismining me’moriy qiyofasi **Ergashev B.E., Davronova Z.P.**	Architectural appearance of the «new city» part of Samarkand in the colonial period **Ergashev B.E., Davronova Z.P.**	**90-96**
16	Ingliz va o‘zbek paremiologik birliklarida “Bilim” tushunchasining amalga oshirilishi **Rofeyeva Sh. D.**	The realization of the concept of "Knowledge" in english and uzbek paremiological units **Rofeyeva Sh. D.**	**97-103**
17	Ingliz va o‘zbek maqollarida son kategoriyasi: ko‘chma, ijtimoiy va falsafiy ma’nolarning qiyosiy tahlili **Usmanov S.B.**	The category of number in english and uzbek proverbs: a comparative examination of figurative, social, and philosophical meanings **Usmanov S.B.**	**104-110**
18	So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarning qiyosiy modeli: svo va sov tizimi (Fransuz va O‘zbek tillari misolida) **Eshmurodova Z.R.**	Comparative model of word order and syntactic connections: SVO And SOV system (on the example of the French and Uzbek languages) **Eshmurodova Z.R.**	**111-115**
19	Samarqandning kulollik xumdonlarining texnologik va hududiy tahlili (XI–XIII asr boshlari) **Nazarov A.A.**	Technological and spatial analysis of pottery kilns of Samarkand (11th – early 13th centuries) **Nazarov A.A.**	**116-124**
20	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida moduyar arifmetika tushuchalarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tadqiqot faoliyati usullarini shakllantirish **Jurakulov M.S.**	Developing student research methods in teaching modular arithmetic concepts in school **Jurakulov M.S.**	**125-132**
21	Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish metodlari va vositalari **Aminov I.B., Abdusobirova M.**	Methods and tools for using digital educational platforms **Aminov I.B., Abdusobirova M.**	**133-140**
22	Ingliz va o‘zbek tillaridagi biznes kommunikatsiya formulalarining lingvo madaniy tadqiqoti **Xolboyeva F.A.**	Linguacultural study of business communication formulas within the context of the english and uzbek languages **Kholboeva F.A.**	**141-147**

UDK: 378.22 **https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3850**

INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

X.S.Xaydarov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

X.S.Xaydarov Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 08.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 22.03.2026
Qabul qilindi: 09.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning samaradorligini baholash masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlardan foydalanishning muhim jihatlari yoritilgan. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarning ta’lim sifati darajasiga ta’siri, talabalar bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Maqolada innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish samaradorligini aniqlash mezonlari va usullari ko‘rib chiqilib, ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, baholash mezonlari, innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar.

Оценка эффективности внедрения инновационных подходов

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы внедрения инновационных подходов в образовательный процесс и оценки их эффективности. Подчеркивается важность использования интерактивных методов, информационно - коммуникационных технологий и новых педагогических методов в современной системе образования. Также рассматривается влияние инновационных подходов на качество образования, их роль в развитии знаний, навыков и квалификаций учащихся. В статье анализируются критерии и методы оценки эффективности внедрения инновационных методов и даются научно-практические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: образовательный процесс, интерактивные методы, эффективность образования, критерии оценки, инновационные подходы, информационно-коммуникационные технологии, качество образования, педагогические технологии.

Evaluation of the effectiveness of the introduction of innovative approaches

Abstract. This article analyzes the issues of implementing innovative approaches in the educational process and evaluating their effectiveness. It highlights the importance of using interactive methods, information and communication technologies, and advanced pedagogical approaches in the modern education system. In addition, the study examines the impact of innovative approaches on the quality of education and their role in developing students’ knowledge, skills, and competencies. The article also considers the criteria and methods for assessing the effectiveness of

implementing innovative methods in practice and provides scientific and practical recommendations aimed at further improving the educational process.

Keywords: educational process, interactive methods, educational effectiveness, evaluation criteria, innovative approaches, information and communication technologies (ICT), quality of education, pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim sifati va uning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa ta’lim jarayoniga yangi pedagogik usullarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Shu bois, ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlarning natijadorligini o‘rganish hamda ularning samaradorligini baholash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish maqsadida pedagogik hamda innovatsion texnologiyalar sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jamiyatga kirib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlash, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish hamda barkamol inson bo‘lib shakllanishiga sharoit yaratish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Davlat siyosatida yoshlar tarbiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta’lim-tarbiyasini rivojlantirish va xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar muhokama qilingan yig‘ilish o‘tkazildi. Mazkur yig‘ilishda belgilangan vazifalar asosida har bir yo‘nalish bo‘yicha dastur loyihalari ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish mexanizmlari keng muhokama etildi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy talab – o‘qitish, kasb-hunar o‘rgatish va tarbiya jarayonlarini xalqaro standartlarga mos, yuqori sifat darajasida tashkil etishdan iborat. Bu esa ta’lim jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llashni taqozo etadi. Shu yo‘nalishda ko‘plab olimlar va tajribali pedagoglar tomonidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasini shakllantirishda AQShning mashhur olimlari: Benjamin Bloom, B. F. Skinner, Robert Gagné, shuningdek L. Larsen, D. Finn, D. Krathwohl va L. Briggs kabi tadqiqotchilar muhim hissa qo‘shgan bo‘lib, ular mazkur yo‘nalishning asoschilari sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, respublikamiz olimlari: N. Saidaxmedov, B. L. Farberman, K. Ishmatov, M. Kamoliddinov, B. Vaxobjonov, U. Tolipov, N. N. Azizxo‘jayeva va boshqalar ham pedagogik texnologiyalarning yutuqlari hamda samaradorligi yuzasidan qimmatli ilmiy takliflar ilgari surganlar.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli har bir ta’lim jarayonini ilg‘or pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish davr talabi va muhim zaruratga aylanmoqda[1].

Zamonaviy o‘qituvchi o‘z faoliyatini innovatsion va pedagogik texnologiyalarsiz samarali tashkil eta olmaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtiruvchi, ularning qiziqishi va motivatsiyasini oshiruvchi metod va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchi o‘zi uchun ham, o‘quvchi uchun ham qulay bo‘lgan o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarini mustaqil ravishda ishlab chiqishi hamda ularni doimiy takomillashtirib borishi lozim.

O‘quvchilarning qiziqishi, intilishi va faolligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahorati, psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda ilhomlantirish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik innovatsiya tushunchalari ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asosiy e’tibor, avvalo, ta’lim mazmunining sifatiga qaratiladi.

B. L. Farberman ta’kidlaganidek, ko‘p bosqichli ta’lim tizimi, yangi standartlar va o‘quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi sharoitda ta’lim jarayonini eskicha usullar asosida tashkil etish

mumkin emas[2]. Hozirgi kunda turli ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tadqiqotlar ham ta’lim sifati va darajasini aniqlashda pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bois o‘quv-tarbiya jarayonini yangi g‘oyaviy asosda va zamonaviy metodlar orqali qayta tashkil etish ta’lim sohasidagi islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan.

Innovatsion yondashuvlar o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur hamda muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq bunday yondashuvlardan samarali foydalanish uchun ularning natijadorligini aniq mezonlar asosida baholash talab etiladi. Samaradorlikni baholash esa ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish va pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

O‘qitish jarayoni — bu o‘qituvchining o‘quvchilarga turli vositalar orqali muayyan sharoitlarda ta’sir ko‘rsatishi va natijada ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida ta’lim mazmuniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, o‘qituvchilar ushbu texnologiyalarni amaliyotda faol qo‘llashga intilmoqdalar.

Pedagogika sohasiga oid ilmiy adabiyotlarda “pedagogik texnologiya”, “yangi pedagogik texnologiya” hamda “ilg‘or pedagogik texnologiya” kabi tushunchalar keng qo‘llanilib, ular turli yondashuvlar asosida talqin etilmoqda. Ushbu ta’riflar orasida UNESCO tomonidan berilgan izoh alohida e’tiborga sazovor hisoblanadi: “Pedagogik texnologiya o‘qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir”[3].

“Texnologiya” atamasi odatda sanoat yoki qishloq xo‘jaligi sohalarida tayyor mahsulotni olish jarayonida qo‘llaniladigan usul va metodlar majmuasini anglatadi. Ta’lim tizimiga nisbatan esa ushbu tushuncha o‘qitish va o‘rganish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini, ularning bosqichma-bosqich tashkil etilishini hamda belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatni muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida rejalashtirilgan ishlarni samarali va talab darajasida bajarish ham ta’lim texnologiyasining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ta’lim texnologiyasi ta’lim berish san’ati va pedagogik mahoratni aks ettiruvchi tushunchadir.

Yangi pedagogik texnologiyalar deganda esa ta’lim berish jarayonini samarali tashkil etish, uni ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirish va jahon standartlari darajasiga olib chiqish tushuniladi. Pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan zamonaviy vositalar, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metod va yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Bundan tashqari, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi, yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligi hamda bilimlarni samarali yetkazish qobiliyati o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning ta’lim jarayonidan qoniqish hosil qilishi va faol ishtirok etishi esa pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri va samarali tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Bunday jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning muayyan vazifalari va o‘ziga xos jihatlari mavjud. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlit va tizimli loyihasini ishlab chiqish, aniq maqsad hamda vazifalarni belgilash, jarayon mazmunini oldindan bashorat qilish va rejalashtirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi eng maqbul metodlar, usullar, shaxsiy yondashuvlar va texnik vositalarni tanlash zarur. Ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil va erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, shuningdek, ularning bilim darajasini oldindan aniqlash ham muhim vazifalardan biridir. Bundan tashqari, o‘quvchilarni faoliyatga yo‘naltirish, ularni faollashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonlarini samarali tashkil etish pedagogik texnologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya o‘z vazifalaridan kelib chiqib ilmiylik, amaliylik va tavsifiylik kabi asosiy xususiyatlarga ega. Ilmiylik — ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini ilmiy asosda ishlab chiqish hamda pedagogik jarayonning umumiy modelini yaratishni anglatadi. Amaliylik — ishlab chiqilgan yondashuvlarning amaliyotda qo‘llanishi va ularning

samaradorlik darajasini aniqlash bilan bog‘liq. Tavsifiylik esa rejalashtirilgan pedagogik faoliyat natijalariga erishish yo‘llarini, ya’ni maqsad, mazmun, metod va vositalar asosida jarayonning bosqichma-bosqich algoritmini yoritishni ifodalaydi.

Tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan va muayyan belgi hamda xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon innovatsion yondashuv sifatida talqin etiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida o‘quvchini faol subyekt, ya’ni bevosita ishtirokchi sifatida ko‘rishni, o‘qituvchini esa ushbu jarayonning tashkilotchisi va boshqaruvchisi sifatida qarashni nazarda tutadi. Bunday sharoitda o‘quvchi dars jarayonining markaziy figurasi bo‘lib, u egallagan bilimlarini faollashtiradi, ularni yangi vaziyatlarda qo‘llaydi hamda tafakkur faoliyati orqali ma’lumdan noma’lumga tomon intiladi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati — o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, bilim olishga nisbatan qiziqish va ehtiyojni rivojlantirish hamda ularni izlanish va kashf etish jarayoniga jalb etishdan iborat. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga erishish hamda ularga o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya asosida dars tashkil etishda asosiy talab – o‘quvchilarning hayotiy tajribasi, avval egallagan bilimlari hamda qiziqishlariga tayangan holda ta’lim berishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

O‘.Tolipov fikriga ko‘ra, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayonida ta’limning asosiy parametrlarini aniqlash, butun o‘quv jarayonini boshqarish obyekti sifatida ko‘rib chiqish va uni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ma’naviy, ruhiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligi o‘quvchilarning shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ochiq muloqot, hamkorlik hamda o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir[4-5].

Olimning ta’kidlashicha, pedagogik texnologiya muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, har bir dars yoki o‘quv predmeti bo‘yicha kutilayotgan asosiy maqsad aniq belgilanishi, ushbu maqsaddan kelib chiqib o‘quv jarayoni modullarga ajratilishi va har bir modul uchun alohida vazifalar tizimi ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, dars bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda fanlararo aloqalarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Dars jarayonida barcha o‘quvchilar faoliyatini samarali boshqarish va umumiy maqsadga erishish orqali ta’lim sifatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi[6]. Zamonaviy ta’lim oldida turgan dolzarb masalalardan biri — yoshlarni bugungi va kelajakdagi murakkab sharoitlarga moslasha oladigan, keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bunday shaxs moliyaviy savodxonlik, tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur[7].

Shu bilan birga, talabalarning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay sharoitlar yaratish hamda bilimlarni baholashning shaffof va obyektiv tizimini joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi[8].

Hozirgi davrda ta’lim mazmunini asosan axborot tarzida, ilmiy-mantiqiy va tahliliy yondashuvsiz, ko‘proq yodlash (xotira) asosida o‘zlashtirish holati keng tarqalgan. Bu esa talabalarning bilim olish jarayonida chuqur fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelmoqda. Mazkur muammoning asosiy sabablaridan biri — o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida asosan reproduktiv metodlardan foydalanib, uni produktiv darajaga ko‘tara olmasligidir.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va uni yuqori bosqichga olib chiqishda muammoli ta’lim, klaster texnologiyalari, bahs-munozara usullari hamda mustaqil ta’lim topshiriqlari muhim o‘rin tutadi. Shunga qaramay, uzluksiz ta’lim tizimida reproduktiv yondashuvning ustunligi saqlanib qolmoqda. Ushbu metodlar asosan ma’lumot berishga xizmat qiladi, biroq o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va chuqur tahlil qilish darajasiga olib chiqishda yetarli samarani bermaydi.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi — olingan bilimlarni real hayot bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Ya’ni nafaqat bilimli shaxsni shakllantirish, balki uni bugungi kun talablari va murakkab muammolarini hal eta oladigan kompetent mutaxassis sifatida tayyorlash zarur[10].

Bizning fikrimizcha, ta’lim natijasi — bu ta’lim oluvchining mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi hamda munosib hayot kechirishi uchun zarur imkoniyatlarga ega bo‘lishidir. Ko‘p yillik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hatto zamonaviy moddiy-texnik baza va boy o‘quv resurslari mavjud bo‘lsa ham, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi yetarli darajada bo‘lmasa yoki u innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olmasa, yuqori ta’lim sifatiga erishish qiyin.

V. P. Bespalko ta’kidlaganidek, ko‘plab ta’lim muassasalarida bilimni baholash jarayoni asosan mavzuni eslab qolish, tushunish va qayta aytib berish bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, bilimlarni qiyosiy tahlil qilish, ijodiy yondashuvni shakllantirish kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Natijada ta’lim oluvchilarda bilimlarni chuqur anglashdan ko‘ra, ularni yodlashga asoslangan yondashuv ustunlik qilmoqda. Bu esa innovatsion metodlarni joriy etish samaradorligini baholash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Insoniyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida moddiy farovonlik asosan ishchi kuchining ko‘pligi hamda tabiiy resurslar — yer va suv zaxiralari bilan belgilanar edi. Hozirgi davrda esa iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga inson kapitali aylangan. Ya’ni moddiy boyliklarni yaratishning negizida insonning ongli va aqliy mehnati, uning bilim va salohiyati muhim o‘rin egallaydi.

Nobel mukofoti sovrindorlari: Theodore Schultz va Gary Becker inson kapitalini shaxsning ham o‘z ehtiyojlarini, ham jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar majmui sifatida ta’riflaganlar. Bu esa inson kapitalini shakllantirishda ta’lim va ilm-fanning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Ta’lim — bu inson tomonidan sarflangan vaqt va mehnat evaziga orttiriladigan eng muhim intellektual boylik va strategik resursdir[11].

Zamonaviy ta’lim tizimi bugungi yoshlarni global chaqiriqlarga moslasha oladigan, noaniq sharoitlarda samarali faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida tayyorlashga qaratilishi lozim. Bunday shaxs real hayotiy vaziyatlarda, jumladan moliyaviy savodxonlikdan tortib tanqidiy fikrlashgacha bo‘lgan kompetensiyalarni amalda qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Shu maqsadda ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini transformatsiya qilish, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish hamda an’anaviy bilimga asoslangan modeldan kompetensiyaga yo‘naltirilgan modelga o‘tish zarurati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, o‘quv rejalari va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida muntazam yangilab borish, talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish, mustaqil ta’limni rivojlantirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion metodlar qatorida modulli ta’lim texnologiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda darsliklar, ilmiy-ommabop hamda qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Modulli ta’limning asosiy xususiyati — o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini ta’minlaydigan modulli dasturlarni ishlab chiqishdan iborat.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi esa nafaqat o‘quv topshiriqlarini birgalikda bajarishni, balki o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlik asosida o‘rganishga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam, fikr almashish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quv jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, savollar va topshiriqlarni ilgari surish, ularni hal etishga qaratilgan muhokamalarni tashkil etish hamda olingan natijalarni asoslash orqali amalga oshiriladi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatiga tayangan holda dars jarayonida erkin fikr almashish va bahs-munozara muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, jamoaviy faoliyat orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Didaktik o‘yinlar texnologiyasi esa o‘yin elementlarini qo‘llash orqali darsga qiziqish uyg‘otish, faollikni oshirish va o‘quv jarayonini jonlantirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bugungi kunning muhim talabi hisoblanadi. O‘qituvchi ijodkor bo‘lishi, turli pedagogik yondashuv va metodlarni ishlab chiqishi hamda ularni samarali qo‘llay olishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har qanday innovatsion yoki pedagogik texnologiya ta’lim mazmuniga mos bo‘lishi va uning o‘zlashtirilishiga yuqori darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Shu bilan birga, qo‘llanilayotgan texnologiyalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ularning qiziqishi va diqqatini jalb eta olishi, shuningdek, ta’lim jarayonida ijobiy taassurot uyg‘otishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion yondashuvlarni ta’lim tizimiga joriy etish uning rivojlanishi hamda o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarning samaradorligini baholash esa pedagogik faoliyatni takomillashtirish, ta’lim metodlarini yanada rivojlantirish va talabalarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. Baholash natijalari asosida ta’lim jarayoniga yangi innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion yondashuvlar asosida samaradorlikni aniqlash ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish va pedagogik faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash mezonlari va usullaridan to‘g‘ri foydalanish orqali innovatsion texnologiyalarning ta’lim natijalariga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish talabalarning bilim darajasini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ishmatov A. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim samaradorligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Farbermen B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
3. Saydaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Molya jurnali, 2023. 62-b.
4. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asaslari.–T: Fan, 2006. 74-b.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2018.
6. Kodirov M.K., Eshburiev R.M., Xaydarov X.S. Kafolatlangan ta’limga erishishda ta’lim mazmunini takomillashtirish masalalari. Pedagog. Ilmiy jurnal. – Buxoro, 2025-yil, aprel, №4.
7. Boboyeva G. Fizika darslarida innovatsion texnologiyalar qo‘llash. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2021.
8. Qodirov M., Xaydarov X. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion muhandislar tayyorlashning takomillashtirish jihatlari. SamDU Ilmiy axboratnoma. 2024. №4\1(146).
9. 9.Qayumov B.I. Ta‘lim sifati, muammolar va yechimlar. Science and Education Scientific Journal november 2023. Volume 4. Issue 11.
10. Кузьмичова Н. Образование для меняющегося мира. ученик будущего – какой он. Ua / ru / obshchestvo / 237084 obrazovanie dlya menyayuschegosya mira uchenik buduschego kakoy on.
11. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalinining shakllanishida ta‘lim va ilm-fanning roli. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. 170-190-betlar.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296